

O‘ZBEK BOLALAR NASRIDA HIKOYA JANRINING ADABIY TAHLIL ASOSIDA O‘RGATILISHI

Jalilova Gulnoza Toyirovna,

Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: maqolada hikoya janri insonga ma’naviy ozuqa beruvchi ijod mahsuli ekanligi, jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti nasrida hikoya janri badiiy saviyasi, mazmuni ixcham, real voqelik yoritilgan asar hisoblanishi nazariyasi yoritilgan. Hikoyada davr va qahramon masalasi, ijtimoiy hayot tasviri, xarakterlar talqini asarning asosiy bo‘g‘inini tashkil qilishi, hikoyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga adabiy tahlil qolipi asosida o‘rgatilishi haida ilmiy-nazariy fikr va mulohazalar berilgan.

Аннотация. В статье изложена теория о том, что жанр рассказа является продуктом творчества, обеспечивающим духовное питание человека, а жанр рассказа считается произведением художественного уровня, лаконичного содержания и реалистической реальности в прозе мировой и узбекской детской литературы. В повести вопрос о периоде и герое, описание общественной жизни, интерпретация персонажей являются основным звеном произведения, а преподавание рассказа учащимся начальных классов осуществляется по схеме литературного анализа.

Annotation. The article outlines the theory that the genre of the story is a product of creativity that provides spiritual nutrition for a person, and the genre of the story is considered a work of artistic level, laconic content and realistic reality in the prose of world and Uzbek children's literature. In the story, the question of the period and the hero, the description of social life, the interpretation of the characters are the main link of the work, and the teaching of the story to primary school students is carried out according to the scheme of literary analysis.

Dunyo adabiyotshunosligi nasriy janrlar shakllanishi hamda badiiy taraqqiyotga ta’siri, uning o‘ziga xos xususiyatlarining stilizatsiyasi qilinishi bilan bog‘liq poetik qonuniyatlarini aniqlash hamisha dolzarb hisoblangan. Chunki yozma adabiyot va folklor, proza va dramaturgiya munosabatlarining bunday tarixiy-tadrijiy rivoji mazkur adabiy jarayonga aloqador an’analarning poetik tafakkuri yangilanishi

va ijodiy mezonlarining takomillashishiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotshunosligida nasrning noyob namunalari bo'lgan bolalar hikoyachiligini ilmiy-nazariy tahlil qilish, ulardagi badiiy qahramon va obrazlar tizimini tadqiq qilish muhim muammo hisoblanadi. Bolalar hikoyalarning badiiy maqsadi, didaktik xususiyatlari, bugungi zamon talablariga to'la mos ravishdagi tahlillari, ularning obrazlar tizimi va badiiy qahramon masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Hikoya - badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an'analarga ega. O'tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo'lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo'lgan, qanday ro'y bergan, kim bilan - bular to'g'risida ma'lumot berish shart emas. Juda zarur bo'lsa, ayrim detallar orqali ihora qilinishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asta-sekin kichik hajmli ertak, hikoya, bolalar uchun yozilgan she'rlarni o'qish jarayonida ularning mazmunini o'zlashtirib, og'zaki nutqda qayta bayon qilishga, odob va axloq masalalariga munosabat bildirishga o'rganadilar. O'quvchilar obrazlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga tavsif berish malakasini hosil qiladilar.

Ayni shu ko'nikmalarga tayanib, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarda adabiy tahlil malakasi shakllantirila boshlanadi. Tabiiyki, 1-4-sinflar o'quvchilari oldiga qo'yiladigan o'quv maqsadlari va vazifalari asta - sekin murakkablasha boradi. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida o'quvchining faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi:

xilma-xil janrdagi asarlarni o'qib o'rganish jarayonida zarur nazariy bilimlarni o'zlashtirib borishlari;

badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan yaxlitligi haqida tasavvur hosil qilishlari; o'qib o'rganilgan asarlarni o'qituvchi yordamida tahlil qilishga kirishishlari ko'zda tutilgan.

Shu sababli, 1-4-sinflardagi adabiy tahlil xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

badiiy asar janriga oid nazariy tushunchalarni syujet, kompozitsiya, obraz, badiiy konfliktga bog'lab o'rganish;

darsda o'rganilgan asarlarning badiiy xususiyatlariga o'quvchilar diqqatini qaratish; xilma- xil janrdagi asarlarni janr talablari asosida o'zaro farqlash malakasiga ega

bo‘lish;

darslikdagi savol va topshiriqlar, o‘qituvchining o‘quvchilarni mustaqil ijodiy ishga hamda tahlilga yo‘llovchi topshiriqlari asosida tahlil malakasini shakllantirib borish; o‘quvchilarni adabiy asar matniga tayanib tahlil qilishga yo‘naltiruvchi usullardan foydalanish.

Binobarin, o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o‘quvchining badiiyatni his qilish holati uning ruhiyati bilan bog‘lansa, badiiy asarni o‘qib o‘rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma’naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta’lim maqsadiga ko‘ra rivojlanishi didaktika bilan bog‘lanadi; o‘quvchining adabiy tahlil talablarini o‘rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o‘zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga mos tarzda bu bilimlarga tayanib amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrlashi – metodika bilan bog‘lanadi. Maktab adabiy ta’limiga estetik tahlilni olib kirish masalasi hanuz dolzarbligini saqlab turibdi. Xo‘sh, adabiy tahlil nima? Umumta’lim maktablari adabiy ta’limiga estetik tahlilni olib kirish yo‘llari qanday? o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasi ta’limning qaysi bosqichida shakllantiriladi? Adabiy tahlil - badiiy asarni o‘qib, mazmunini o‘zlashtirishdangina iborat emas, holbuki, ko‘plab adabiyot o‘qituvchilari adabiy tahlilni ana shunday yuzaki tarzda tushunadilar.

Bolalar adabiyoti – [bolalar](#) va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Sharq yozma adabiyotida „pandnoma“, „mav’izatnoma“, „nasihatnoma“, „axloq kitoblari“ singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar bolalar adabiyotining dastlabki namunalari hisoblanadi. Masalan, Kaykovusning „Mav’izatnomai Kaykovus“ („Qobusnoma“), Shayx Sa’diyning „Guliston“ va „Bo‘ston“, Jomiyning „Bahoriston“ asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vositasida o‘zbek Bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Alisher Navoiyning „Hayrat ulabror“, „Mantiq ut-tayr“ va „Mahbub ul-qulub“ asarlari, Xojaning „Miftoh ul-adl“ va „Gulzor“, Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarlari esa o‘zbek bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo‘lib, pand-nasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar nasrida ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangidan - yangi avlodi kamol topdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to‘la javob bera oladigan ko‘plab hikoyalar yaratildi.

Hakim Nazir, Yoqubjon Shukurov, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Turg‘unboy G‘oipov, Rahmat Azizxo‘jayev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Ergash Rayimov, Safar Barnoyev, Abdusaid Ko‘chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan qissa va hikoyalar to‘plamlari bosilib chiqdi. Juda ko‘p hikoyalarda kichkintoylar hayotidagi turli sarguzashtlar va ziddiyatlar o‘z ifodasini topmoqda. Shodmonbek Otaboyevning „Itolg‘i“ hikoyasi qush, qurt- qumursqalarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg‘i chumchuq va chug‘urchuqlarni tutib olib yeydigan qush. Shukurali aka itolg‘ini jiyani Shavkatga sovg‘a qiladi. Shavkat uzum qo‘riqlashda undan foydalanmoqchi edi. Ammo qush ularnikida o‘zini erkin sezmaydi. Buning sababini surishtirganda Shavkatning otasi bu jonivor ozodlik va erkinlikni qo‘msayotganligini tushuntiradi. Shavkat qushlarni yaxshi ko‘radigan, rahmdil bola. U itolg‘ini qafasda uch kun zo‘rg‘a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o‘zi o‘tirgandek bo‘ladi va itolg‘ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga rahmat, degandek aylanib uchib ketadi. Adabiy tahlil she‘r yoki nasriy asarni ifodali o‘qishdan boshlanadi; o‘qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o‘zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko‘z o‘ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg‘ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. o‘sha ta‘sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo‘llagan tasviriy vositalarga sirtdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e‘tibor o‘qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma‘nolariga jalb etiladi. Ammo, tahlil jarayonida ana shu ma‘nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o‘rganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylik, hayotiylik va ta‘sirchanlik mezonlari asosida o‘rganish maktab adabiy ta‘limining bosh vazifasini belgilaydi.

O‘zbek adabiyotida “tahlil” va “talqin” tushunchalari mavjud. Jumladan, adabiyotshunoslikda “tahlil” va “talqin” tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonida bir-biriga uzviy bog‘liq, hatto o‘rni kelsa bir-birini qoplab ketadigan ikkita jihatini anglatadi. Zero, badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt birgalikda hozirdir.

Yaxshi ma‘lumki, lug‘aviy ma‘noda “tahlil” so‘zi obyekt (narsa, hodisa, jarayon)ni o‘rganish maqsadida fikran (yoki amalda) tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat amalni anglatadi. Keng ma‘noda “talqin” so‘zi o‘zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (Ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va b.) mazmunini anglash, uni ma‘lum

yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish ham) deganidir. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan.

Badiiy asarni tushunish jarayoni obyektiv va subyektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni subyektiv ibtido deb olsak, badiiy matn obyektiv ibtidodir.

Adabiy asarlardan estetik tahlilga tayanib ma'naviy saboq berish, yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ham jisman, ham ruhan tetik, baquvvat, komil shaxslarni shakllantirish adabiy ta'limning yetakchi vazifalaridan biridir. O'quvchilarda tahlil malakasi 1-4-sinflarda shakllantirilishi, yuqori sinflarda esa bu malakani takomillashtirishga e'tibor qaratish lozimligi metodik adabiyotlarda tilga olingan.

Ammo, mazkur malakani shakllantirish uchun boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ma'lum adabiy tayyorgarlik bosqichidan o'tishlari zarur. To'g'ri, ilk bosqichda bu holat o'quvchining his etish qobiliyati orqali ko'p darajada voqe bo'ladi. O'quvchi zavqlanish, ta'sirlanish orqali mazmunni anglash sari boradi. Ta'limning keyingi bosqichlarida shu xususiyatga tayanib, o'quvchini fikrlashga o'rgatiladi, muhokama - mulohazalari tinglanadi, zarur o'rinlar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi, endi asar qurilishi, janr xususiyatlari haqidagi boshlang'ich bilimlar beriladi.

Gap 1-4-sinf o'quvchilarida shakllantirilishi zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va tahlil malakasiga kelib taqalganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limning bu bosqichida o'quvchilar kitobxonligiga erishish jiddiy muammo hisoblanadi. Kitob o'qimaydigan yoki bunga havasi bo'lmagan o'quvchidan didli kitobxonni "yaratish" o'qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga ko'p darajada bog'liq. Kitob o'qishni ma'naviy ehtiyojga aylantira olgan o'quvchigina estetik tahlil malakasini to'la egallashi mumkin. Kitobxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar yuqori sinflarda adabiy jarayonning muhim qonuniyatlarini, badiiy ijoddagi an'anaviylik va badiiy mahorat, uslubiy o'ziga xoslik kabi tushunchalarni o'zlashtira oladilar.

Yuqorida aytilganidek, adabiy asar tahlilida qat'iy belgilangan tartib va masalalar mavjud emas, bular tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Xulosa qilib aytganda, adabiy asar tahlilining muvaffaqiyati ko'p jihatdan maqsadni aniq belgilash, shu maqsadga erishishga yordam belgilanadi. Xulosa qilib aytganda, adabiy asar tahlilining muvaffaqiyati ko'p jihatdan maqsadni aniq belgilash, shu maqsadga erishishga yordam beradigan metodlarni tanlay bilish va tahlilni amalga

oshirish tartibini to'g'ri belgilashga bog'liqdir. Shu shartlar asosida amalga oshirilgan tahlil asar talqini - uning tushunilishi va tushuntirilishi ilmiy jihatdan asosli bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasining shakllanishi adabiyot o'qituvchilarining bilimiga, dars jarayonida samarali metod va usullarni qo'llash darajalariga ham bog'liq, albatta. Shu bilan birga darslarning ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ham ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir.

Demak, o'quvchilarda tahlil malakasini tarkib toptirish ham nazariy, ham amaliy bilimlar va malakalarni birlashtiruvchi ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi. Yangilangan ta'lim texnologiyasi talabiga ko'ra o'quvchini oddiy tinglovchi darajasidan faol izlanuvchi, fikrlovchi, ijodkor o'quvchi darajasiga yetkazish maqsadi ana shunday amaliy jarayonlarda yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish - Toshkent, 2007.
2. Rasulov A. Badiiylik - bu zavol yangilik. - Toshkent, 2007.
3. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek hikoyasi//O'zbek tili va adabiyoti. 2012 yil, 4-son.
4. Mamajonov S. Tanqidchi va adabiy jarayon. O'zbek adabiyoti tanqidi(antologiya). - T.: Turon iqbol. 2011.
5. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. O'qituvchi kitobi. Toshkent, "Tafakkur", 2011.
6. Aydarova U.B. - O'qish savodxonligi-2-sinf-Novda. Toshkent, 2023